

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Н.Н.Бобоҷонов, Г.Г.Козлова

8 yoshdan 10 yoshgacha bo'lgan bolalarda qo'shma ta'sir qilish usuli yordamida harakatni muvofiqlashtirish ko'nikmalarini yaxshilash 111

D.T.Abduraimov

Talabalar hayoti sifatini yaxshilashda atletik gimnastika vositalaridan foydalanishning samaradorligi..... 116

F.M.Mamadova

Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarining pedagogik madaniyati va kompetensiyasini rivojlantirish mexanizimi 121

M.M.Yuldashev

Ayollar organizmini jismoniy mashqlarga reaksiya qilishida hududiy omillarning ahamiyati 125

N.J.Madaminova

Maktabgacha ta'llimda ingliz tilini o'rganish uchun geymifikatsiya texnologiyalaridan foydalanish: samaradorlik va natijalar tahlili 129

S.M.Sidikov

Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanishini nazorat qilish modernizatsiya..... 133

S.B.Erkinova

Oliy ta'llim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarning kognitiv faoliyatini tuzilishi va turlari 139

IQTISODIYOT**M.R.Dadashzade**

Administration of the production areas based on innovative technology..... 143

FALSAFA**I.M.Arzimatova**

O'zbekistonda modernizatsiya jarayonlari va rahbar kadrlar faoliyati..... 148

F.A.Yuldashev

Axborotlashgan jamiyatda ehtiyoj va manfaat kategoriyasining namoyon bo'lishi (ijtimoiy-falsafiy tahlil)..... 153

Sh.Ismatov

Yangi O'zbekistonda ma'rifiy jamiyat barpo etishning nazariy asoslari 158

B.B.Asqarov

Dizayn fikrplashda empatiya bosqichining pedagogikadagi roli 161

I.A.Asatulloev

Alfred adlerning qalb konsepsiyasida inson barkamolligi omillari..... 164

O.Ortiqov

Mustaqillik davrida ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlar tahlili (1990-1994 yillar)..... 172

A.M.Nurmuxammadjonov

Ijtimoiy rivojlanish jarayonida yoshlар musiqiy tafakkurini rivojlantirishning istiqboldagi vazifalari 175

A.A.Sayitxonov

Ilmiy qadriyatlarning inson axloqiy va ma'naviy yuksalishiga ta'siri..... 188

SIYOSAT**A.Leyla**

Xitoy Xalq Respublikasining Markaziy Osiyo mintaqasidagi geosiyosiy manfaatlari 191

S.N.Abdullayev

Huquqiy ong masalasiga falsafiy yondashuvning o'ziga xos xususiyatlari 196

ТАРИХ**Sh.M.Abdusatorov**

Jizzax vohasi an'anaviy taomlarining gastroturizmni rivojlantirish bosqichidagi o'rni va ahamiyati (Forish tumani misolida)..... 199



УО'К: 27.08:373.02(072)

AYOLLAR ORGANIZMINI JISMONIY MASHQLARGA REAKSIYA QILISHIDA HUDUDIY OMILLARNING AHAMIYATI

ВАЖНОСТЬ ТЕРРИТОРИАЛЬНЫХ ФАКТОРОВ В РЕАКЦИИ ЖЕНСКОГО ОРГАНИЗМА НА ФИЗИЧЕСКИЕ НАГРУЗКИ

THE IMPORTANCE OF TERRITORIAL FACTORS IN THE FEMALE BODY'S RESPONSE TO PHYSICAL ACTIVITY

Yuldashev Ma'mirjon Mamajonovich

Farg'ona davlat universiteti, jismoniy madaniyat nazariyasi kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya

Atrof-muhit harorati turli hil bo'lgan sharoitlarda erkaklar va ayollarini jismoniy yuklamaga reaksiyasida mumkin bo'lgan farqlarning nazariy asoslari bo'yicha ilmiy adabiyotlar tahsil qilingan bo'lib, ayollar organizmini jismoniy mashqlarga reaksiya qilishida hududiy omillarning ahamiyati o'rganilgan.

Аннотация

Температура окружающей среды проанализирована научная литература на теоретические основы возможных различий в реакции мужчин и женщин на физические нагрузки в условиях многообразия, изучено значение территориальных факторов в реакции женского организма на физические нагрузки.

Abstract

The scientific literature on the theoretical basis of possible differences in the reaction of men and women to physical overload in conditions with different environmental temperatures has been analyzed, studying the importance of territorial factors in the reaction of the female organism to physical exercise.

Kalit so'zlar: Ayollar organizmi fiziologik xususiyatlari, atrof-muhit harorati, hududiy omillar, regional faktorlar, issiq iqlim, havo namligi, kislordan maksimal iste'mol qilish, jismoniy yuklamaga reaksiyasi, energiya almashinuvi, akklimatizatsiya qilish, radiatsiya va konveksiya.

Ключевые слова: Женский организм характеризуется физиологическими особенностями, температурой окружающей среды, территориальными факторами, региональными факторами, жарким климатом, влажностью воздуха, максимальным потреблением кислорода, реакцией на физические нагрузки, энергетическим обменом, акклиматизацией, излучением и конвекцией.

Key words: Physiological characteristics of the female body, ambient temperature, regional factors, hot climate, humidity, maximal oxygen consumption, response to physical load, energy metabolism, acclimatization, radiation, and convection.

KIRISH

Mamlakatimizdagi va xorijdagi mualliflarning tadqiqotlari ma'lumotlariga ko'ra, jismoniy mashqlarni bajarish paytida tananing ichki haroratini ortishi – sport natijalarini o'sishiga qarshilik ko'rsatadigan asosiy omillardan biri hisoblanadi va organizmni ortiqcha qizib ketishi va issiqlik urishini boshlanishi bilan bog'liq. Ushbu xavf, ayniqsa, jismoniy mashqlarni atrof-muhit haroratini yuqori bo'lgan sharoitlarida bajarish vaqtida ortadi. Shuning uchun, termoboshqaruva masalalari jismoniy mashqlarni bajarish paytida, azaldan jismoniy tarbiya va sportni ilmiy asoslash sohasida faoliyat yuritadigan tadqiqotchilarining diqqat-e'tiborida bo'lgan.

Jismoniy mashqlarni atrof-muhit haroratini yuqori bo'lgan sharoitlarida bajarish paytidagi termoboshqaruva mexanizmlari to'g'risidagi ma'lumotlar, oxirgi yillardagi bir qator nashriy ishlarda umumlashtirilgan.

Atrof-muhit harorati yuqori bo'lgan sharoitlarda kuchlangan mushak ishini bajarish paytida erkaklar va ayollar reaksiyasini qiyosiy solishtirish bo'yicha ilk bor amalga oshirilgan tadqiqotlar, ayollar ekstremal sharoitlarda jismoniy mashqlarni bajarishga nisbatan kamroq barqarorlikni namoyish qilishlarini ko'rsatgan.

O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 2017-yil 7-fevraldag'i PF-4947–son "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo'naliishlari bo'yicha Harakatlar

strategiyasi to'g'risida"gi, 2018-yil 5-martdagি PF-5368-son "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2018-yil 20-fevraldagи PF-5325-son "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 2-sentabrdagi PF-562-son "Reproduktiv yoshdagi ayollar, homiladorlar va bolalarga ko'rsatiladigan tibbiy yordam sifatini oshirish va ko'lamenti yanada kengaytirish to'g'risida" Farmonlari, 2017-yil 3-iyundagi PQ-3031-son "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni hal qilishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mazkur muammo M.S.Xaziaxmetova, A.M.Gafitulin, D.V.Nikiforov, Y.A.Marenchuk, S.Y.Rojkov kabi mutaxassislar tomonidan oliy ta'lim muassasalari talabalarining jismoniy tarbiyasi bo'yicha yetaricha o'rganilgan [1,2].

V.G. Kim., Z.X.Badayeva, R.M .Rasulov, N.T.Tuxtaboyev., Uraimov S.R. kabi [3,4.], bir guruh mualliflar tomonidan o'quvchi-qizlarni jismoniy tarbiyasi bo'yicha dissertatsiya ishlari bajarilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib jismoniy tarbiya fanining dolzarb muammolaridan biri organizm tizimlarining funksional holatiga jismoniy tarbiya bo'yicha davlat dasturlarida nazarda tutilgan jismoniy mashqlarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan hududiy omillarni ta'sir qilishi sharoitida ta'limning professional bo'g'inda amalga oshiriladigan jismoniy tarbiyani takomillashtirish, uni mashg'ulot va o'yin davomida saqlash masalalariga e'tibor qaratilmagan.

Bir nechta tadqiqotlarda taxminan bir xildagi aerob imkoniyatlarga ega bo'lgan erkaklar va ayollarning reaksiyasini qiyosiy solishtirilgan bo'lib, unda, jismoniy mashqlar vaqtida issiqlik yuklamalariga nisbatan jinsga mansub vakillar o'rutasida farqlar kuzatilmagan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Atrof-muhit harorati yuqori bo'lgan sharoitlarda erkaklar va ayollarni jismoniy yuklamaga reaksiyasida mumkin bo'lgan farqlarning nazariy asoslari bo'yicha ilmiy adabiylotlarda bayon qilingan ma'lumotlarda, erkaklar issiqlik iqlim va havo namligi past bo'lgan sharoitlarida jismoniy mashqlarni bajarish paytida, ayollarga nisbatan ustuvorlikka ega degan taxmin ilgari surilgan.

Agarda, jismoniy yuklama kislорodni maksimal iste'mol qilinishidan 60-70% kattalikdagi jadallikda bajarilsa, ushbu holatda erkaklar va ayollar organizmini jismoniy yuklamaga nisbatan funksional reaksiyasida sezilarli farq kuzatilmasligi aniqlangan.

Alovida tadqiqotlarda erkaklar bilan ayollar o'rutasida ter ajralishi tezligida, agar ular, akklimatizatsiyaning zaruriy davridan o'tishgan bo'lsalar, sezilarli farq bo'lmashigi ko'rsatilgan. Erkaklarda energiya almashinuvni jadalligini ortishi issiqlikn katta miqdorda ajralishiga olib keladi, buning oqibatida, issiqlik balansini ushlab turish uchun terni bug'lanishi vositasida katta miqdordagi issiqlikn ajratish zarurati yuzaga keladi. Katta hajmdagi va jadallikdagi jismoniy mashqlarni bajarish paytida ter ajralishi tezligi issiqlikn ajratilishi bilan korrelyatsiya qilishi tajribalarda aniqlangan.

Issiqlik iqlim va havo namligi past bo'lgan sharoitlarda jismoniy mashqlarni bajarishga akklimatizatsiya qilish, terining haroratini pasayishiga, yurak qisqarishlari chastotasini kamayishiga va ter ajralishi tezligini ortishiga olib keladi.

O'z tadqiqotlarida, akklimatizatsiya bosqichidan o'tgan erkaklar va ayollar o'rutasidagi issiqlikka tolerantlida sezilarli farqlarni aniqlashmagan, bunda, akklimatizatsiyani boshlanishidan oldin ishning chegaraviy vaqt bo'yicha baholanadigan ayollarning tolerantligi nisbatan past bo'lgan.

Yuqorida bayon qilingan materialni tahlil qilish, atrof-muhit harorati yuqori bo'lgan sharoitlarda jismoniy mashqlarni bajarish paytida, ayollar tana yuzasini vazniga nisbati katta bo'lganligi tufayli, erkaklar oldida birmuncha ustuvorlikka ega bo'lishini ta'kidlashga asos beradi. Ushbu sharoitlarda ter ajralishi kattaliklari limitlovchi omil hisoblanmaydi, chunki tana orqali bug'lanish hisobiga issiqlikning ajratilishi nisbatan katta emas. Havoning namligi va atrof-muhit harorati yuqori bo'lgan sharoitlarda jismoniy mashqlarni bajarish paytida erkaklardagi ter ajralishi tezligi ayollarnikidan yuqori bo'ladi.

Ayollarda tana yuzasini vazniga nisbati katta bo'lganligini hisobga olish, issiqlikn radiatsiya va konveksiya vositasida ajratilishini yengillashtiradi, bu ayollarga issiqlik iqlim sharoitlarida jismoniy mashqlarni bajarish paytida erkaklarga nisbatan ustuvorlik beradi.

PEDAGOGIKA

Atrof-muhit va havoning harorati yuqori bo'lgan sharoitlarda jismoniy mashqlarni bajarishga akllimatizatsiya qilish yurak qisqarishlari chastotasini ortishiga olib kelishi aniqlangan bo'lib, tana harorati erkaklar va ayollarda teng miqdorda pasaydi.

Kislородни максимал иштепол qilinishini taxminan 80% ga teng jadallik bilan ish bajarayotgan ayollarda, mashqlarni bajarishning birinchi 90 minuti davomida yurak qisqarishlari chastotasi va rektal harorati taxminan teng bo'ladi. Akklimatizatsiyadan keyin ter ajralishining jadalligi ayollarnikiga nisbatan ko'proq darajada erkaklarda ortadi.

Atrof-muhit harorati yuqori bo'lgan sharoitlarda jismoniy mashqlarni bajarish paytida ayollar organizmini reaksiya qilishi xususiyatlarini tahlil qilish bilan bog'liq bo'lgan qiziqarli omil – mashg'ulot qilgan va mashg'ulot qilmagan ayollarning ko'rsatkichlarini taqqoslash hisoblanadi. Hozirgi vaqtida mavjud bo'lgan dalillar, jismoniy tayyorgarligi darajasi past bo'lgan ayollar aerob imkoniyatlari yuqori bo'lgan ayollarga nisbatan kamroq darajada tolerantli ekanligidan dalolat beradi.

Akklimatizatsiyaning ilk belgilari jismoniy mashqlar bilan shug'ullanishning birinchi mashg'ulotlaridan keyinoq kuzatilishi tajribalarda aniqlangan. Mashg'ulot qilgan sportchi ayollar, atrof-muhit va havoning harorati yuqori bo'lgan sharoitlarda jismoniy mashqlarni bajarish paytida, qonning daqiqalik hajmini kam mashg'ulot qilgan sinovdan o'tuvchilarga nisbatan eng yaxshi darajada ushlab turishgan.

Ayollar kontingentining sport trenirovksi usullariga kelsak, yugurishda intervalli usullarni qo'llanilishi, sinovdan o'tuvchilar atrof-muhit harorati yuqori bo'lgan sharoitlarda katta jismoniy mashqlarni bajarishiga sarflanadigan vaqtning davomiyligi ortishi aniqlangan. Mashg'ulot, ayollarda ter ajralishiga olib keladigan jismoniy yuklamalarning bo'sag'a kattaligini pasaytiradi.

Lekin, mashg'ulot qilgan ayollar mashg'ulot qilmagan ayollarga nisbatan terni kattaroq jadallikda ajratishni boshlashadi. Mashg'ulot qilgan ayollarda ter ajralishini erta boshlanishi va uning jadalligini ancha yuqori bo'lishi, sekretor faolligining ortishi va ter bezlarini sport mashg'uloti natijasida ortadigan sezuvchanligini yuqoriligi bilan bog'liq bo'lsa kerak.

Ma'lumki, oylik menstrual sikllar davomida ayollardagi termoboshqaruv, tana yadrosining harorati ovulyatsiya fazasida ortishi vaqtida birmuncha o'zgaradi.

Rektal haroratda, teri haroratida hamda sinovdan o'tuvchilar menstrual siklining har xil fazalari vaqtida yuqori haroratli kamerada o'tirishganidagi ter ajralishi jadalligida kichkina farqlarning mavjudligi to'g'risida axborotlar bor.

Menstrual siklining har xil fazalari vaqtida o'tkazilgan va issiq iqlim sharoitlarida jismoniy mashqlarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan tadqiqotlarda olingen natijalar ma'lum bir xulosalarga kelishga asos bo'la olmaydi. Tana harorati birmuncha yuqori yoki atrof-muhitning komfort sharoitlarida ovulyatsion siklining har xil fazalarida mashqlarni bajarishda o'zgarmas bo'ldi. Bunda, energiya ishlab chiqarilishida statistik ahamiyatli farqlar kuzatilmadi.

Bir qator ishlarda jismoniy mashqlarni bajarish paytida chidamlilik, yurak qisqarishlari chastotasi va ter ajralishi tezliklari ko'rsatkichlarida farqlarni aniqlash imkon bo'lmagan. Issiqlik va jismoniy mashqlarni kombinatsiyalangan ta'siri menstrual siklining har xil fazalarida organizmnинг fiziologik reaksiyalaridagi siklik o'zgarishlarni niqoblaydi, degan tasavvur yuzaga keladi.

Yuqorida bayon qilinganlarni umumlashtirish bilan erkaklar va ayollar bir xil bo'lgan nisbiy jadallikdagi (kislородни максимал иштепол qilinishi darajasiga nisbatan foizlarda) mashqlarni bajarishganida, ular o'rtaсидаги atrof-muhit va havoning harorati yuqori bo'lgan sharoitlarda bajariladigan jismoniy mashqlarga reaksiyalaridagi farqlar o'ta kichkina, degan xulosaga kelish mumkin.

Keltirilgan tajriba ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, ayollar yuqori havo harorati yuqori namlik bilan birga kelganida, unga ancha chidamli. Ayollarni atrof-muhit va havoning harorati yuqori bo'lgan sharoitlarda jismoniy mashqlar bajarishga katta tolerantligi, ularda tana yuzasi va vaznini qulay nisbati bilan bog'liq bo'lib, bu – radiatsiya va konveksiya vositasida ter ajralishini yengillashtiradi.

XULOSA

Mashg'ulot natijasida ter ajralishi bo'sag'asi, mashqlarni bajarish havoning harorati yuqori bo'lgan sharoitlarda amalga oshirilgan va bug'lanish issiqlik ajralishini samarasiz mexanizmi bo'lgan holatlarda pasayadi. Mashg'ulot natijasida trenirovka qilgan sportchi ayollarda, mashg'ulot qilmaganlarga nisbatan ortiqcha ter ajralishini erta bostirilishi sodir bo'ladi, bu, ayollar organizmini namlikni ortiqcha yo'qotishdan saqlaydi. Ayollar kontingentida o'tkazilgan tadqiqotlarda issiq iqlim

sharoitlarida jismoniy mashqlarni bajarish paytida, sezilarli fiziologik reaksiyalarni aniqlash imkonini bo'lmadi.

Shunday qilib, sport mashg'ulotlari asoslari erkaklar va ayollar uchun bir xil. Biroq, ba'zi omillar, masalan, ayollar tanasining xususiyatlari, ularning jismoniy tayyorgarligida ma'lum bir shartlilikni keltirib chiqaradi. Jismoniy faoliydarajasi ko'p jihatdan biologik faoliy ulushiga bog'liq, shuning uchun eng muhim ijtimoiy-pedagogik vazifa turli xil kasbiy faoliyatdagi o'quvchi-qizlar uchun optimal, shuningdek, minimal va maksimal mumkin bo'lgan jismoniy faoliyat rejimi asosida tashkillanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Хазиахметова М.С. Особенности методики физического воспитания дошкольников, проживающих в условиях жаркого климата. Автореф. дис...канд. пед. наук. - М.- 1991. – С. 27-30
2. Ханкельдиев Ш.Х. и др. Возможности повышения физической подготовленности молодежи, проживающих в условиях жаркого климата. Андижан. - Учебное пособие. - 1998. - С.44-46
3. Ханкельдиев Ш.Х., Абдуллаев А.А. Проблемы построения нормативных основ государственных стандартов по физическому воспитанию // Фан-спортга. - № 1. -2005. - С. 20-23
4. Ураимов С.Р. Харбий-техник лицейлари укувчиларининг амалий жисмоний тайергарлигини педагогик хоссиятлари. Автореф. дисс...докт. философии (PhД) по пед. наук. - Т.- 2019. – С. 27-30
5. Усмонходжаев Т.С. Научно-педагогические основы физического совершенствования детей в связи с их двигательной активностью. Автореф.дисс...докт. пед. наук. -Ташкент. – 1995. – С. 50-52